

INGLIZ TILINI O'QITISHDA INNOVATSION METODLAR

Namangan viloyati, Namangan shahar

"Maktabgacha va muktab ta'limi" bo'limi tasarrufidagi

I-o'rta ta'lim muktab ingliz tili fani o'qituvchisi

Raxmanova Dilbar Alimjanovna

Annotatsiya: Maqolada ingliz tili fanini o`qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati xususida so`z yuritilar ekan, fanni o`zlashtirish biroz murakkabligini hisobga olgan holda o`quvchining barcha imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek tilni rivojlantirishda yangi metodlardan misollar keltirilib, uning ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so`zlar: Ingliz tili, metodika, fan, uslub, dars, o`quvchi, pedagog.

“Chet tillari bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga erishgan maktablar uchun Prezident sovrini ta’sis etiladi” — Shavkat Mirziyoyev. Darhaqiqat, chet tilinirivojlantirish orqali dunyo tan olgan davlatlar standartiga javob bera oladigan muktab dars, darslik yaratish biz pedagogklarning vazifamizdir. Quvonarlisi, ingliz tilida biyron so`zlasha oladigan lar muktabning birinchi sinfibayoq topilayotgani, tizimda ingliz tili mutaxassislarning ko`p mehnati singayotganidan dalolatdir. Ayniqsa, chet tilida xalqaro darajalarga erishayotgan o`quvchilar safi kundan kunga ko`payib bormoqda. Shuningdek, milliy oliygoharimizdan tashqari dunyoning top 1000 talikka kirgan universitetlarga bir o`quvchining yettitadan ortig`iga talaba bo`layotgani ham bizni quvontiradi. Darvoqe, fanni o`zlashtirish biroz murakkab jarayon. O`zga tilni o`z tilidek mukammal o`zlashtirishda esa pedagogning mahoratiga bog`liq. Bunda yangi pedagogik uslublardan foydalanish ham muhim ham samaralidir. An`anaviy darsdan ko`ra o`quvchi yangi texnologiyalardan foydalanib o`tilgan darsda o`zlashtirish ko`rsatkichi yuqori bo`ladi. Quyida shu kabi yangi pedagogik uslublarning mohiyati va amalda qo`llay olishdagi samaralari haqida so`z yuritamiz.

Ko'pgina adabiyotlarda hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lif metodlar "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blist-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lif" ekanligi qayd etiladi. Ma'lumotlarga ko'ra interfaol ta'lif strategiyalari qatoriga "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinamazina", "Muzyorar", "Rotastiya", "Yumaloqlangan qor" uslublar kiradi. Interfaol ta'lif metodlari tarkibidan interfaol ta'lif strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategikyondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lif metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

Interfaol grafik organayzerlar: "Baliq skeleti", "BBB", "Konsteptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lif metodlariga tegishli. Quyida yangi minteraktiv metodlardan bir nechtasini tahlil qilsak. Bunda o'qitish va o'rganishning bir necha metodlaridan foydalanish samarali natija beradi. O'qitish kichik bosqichlarda amalga oshiriladi va o'quvchining mavjud bilim tizimiga asoslanadi. Zamon ilgarilab borgani sari har sohada yangilik ko'payib bormoqda. Til o'rgatishda ham turli uslublar paydo bo'lmoqda. Ingliz tilini o'rgatishda o'rganuvchining salohiyat va darajasi, yoshidan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich o'rgatish yaxshi natija beradi. Bunda o'quvchilar boshlang'ich bosqichda o'qitish, o'rta bosqichda o'qitish, yuqori bosqichda o'qitish asosida guruhlarga bo'linadi. Har bir bosqich uchun o'qituvchi tomondan maxsus dastur ishlab chiqiladi. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy taxnologiyaning roli beqiyos. Texnologik m. vositalardan foydalanish chet tili o'rganishning har bir aspect (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish)ida foydalilanadi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD disklarsiz bu jarayonni amalga oshirib bo'lmaydi. Tinglab tushunish-til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Ta'lif jarayonidakommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi

muhim hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samarador usullardan biridir. Bugungi kunda maktablarda interfaol o'yinlar orqali dars o'tish an'anaga aylanib bormoqda. Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi o'quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko'nikmalarini oshirish va kuchli bo'lishlarini ta'minlaydi. O'yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o'quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. "Muammoli vaziyat yechimi" (Creative Problem Solving) bu usulni qo'llash J-jt uchun hikoyaning boshlanishi o'qib beriladi qanday yakun topishi o'quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi; - "Quvnoq topishmoqlar" (Merry Riddles) Ta'lim jarayonida o'tkaziladigan treninglarda nutq ko'nikmalarini shakllantirishga va ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantirishga yetarli e'tibor berilishi kerak. Bundan tashqari ta'llimda har bir darsning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mashg'ulotni to'g'ri tashkil etishga bog'liqdir. Dars o'qituvchi va o'quvchining ijodiy hamkorligiga asoslanishi lozim. Shundagina o'quvchilar mustaqil erkin fikrlay oladilar, irodalari tarbiyalanadi.

1. "B-B-B" (bilamiz, bilishni xoxlaymiz, bildik) metodi. Bu usul dars jarayonida o'quvchilarning matnni tushinishini, uni tahlih qilish qobiliyatining o'sishi uchun kerakli usul hisoblanadi.

2. "Aqliy hujum" (Brainstorming)- g'oyalarni generatsiya qilish metodi hisoblanadi. Bu usulning mohiyati o'quvchilarda jamoa hamkorligi asosida muammo yechish jarayonlarini vaqt bo'yicha bir qancha bosqichlarga : g'oyalarni generatsiyalash, ularni tanqidiy va konstruktiv holatda ishlab chiqishdan iboratdir.

3. "Muammoli vaziyat yechimi" (Creative Problem Solving). Bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanish qismi o'qib beriladi va uning yakunlovchi qismini topish o'quvchilar hukmiga havola qilinadi. Bu usul o'quvchida fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

4. "Tezkor savol" (Quick answers) Bunda o'quvchilarga o'tilgan mavzu yuzasidan savol beriladi. Bu metod o'tilgan dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

5. "Pantomima" (Pantomime)- turli xildagi so'zlarni imo-ishoralar orqali tushuntirish. Bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma

mashqlar bajarib o'quvchilar charchagan paytlarida foydalanilsa maqsadqa muvofiq bo'ladi.

6."Hikoya zanjiri"(A chain story)- biror bir hikoyani aytib beriladi. Bu metod o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantiradi.

7."Rasmlar so'zlaganda"(When pictures speak) usuli ancha qulay bo'lib, ingliz tilini o'rgatishda , o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga aloqador rasmlardan foydalanish lozim.

8."Kviz kartochkalar"(Quiz cards)- bunda o'quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma o'quvchilarlar bir vaqtida darsda ishtirok etishini ta'minlaydi, bu esa vaqt ni ancha tejaydi.

9."Klaster"usuli. Klasterlarga ajratish o'quvchilarga biror bir mavzu yuzasidan erkin va ochiq tarzda fikr yuritishga yordam beradigan pedagogik strategiyadir. Bu metod asosan yangi fikrlarni uyg'otish, mavjud bilimlarga yana yangi fikr qo'shish uchun samarali usuldir.

Xulosa qilib aytganda, bugungi shiddat bilan rivjlanayotgan davrda chet tillarini o'rgatishga ehtiyoj yuqori bo'lgan bir davrda, ta'lim jarayonida zamonaviy metodlardan, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish bu jarayonni tez va samarali bo'lishiga olibkeladi. Xususan, texnologik vositalar chet tili o'rganishning har bir ko'nikmalari(o'qish, yozish , tinglab tushunish va gapirish)ga qo'l keladi. Mamlakatimiz ta'lim tizimi o'z oldiga barkamol, yetuk va erkin fikrlovchi shaxsni tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yari ekan ,biz barcha bo'lajak o'qituvchilar zamonaviy metodlar va texnologiyalarni o'rganib ulardan samarali foydalanangan holda yoshlarga chet tillarini mukammal o'rgatish orqali yurtimiz ravnaqiga o'z hissamizni qo'shishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bekmurodova.U.B. “Ingliz tilini o’qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat., Toshkent 2012-yil.
2. Xatamova N.Q., Mirzayeva M.N. “Ingliz tili darslarida qo’llaniladigan interfaol usullar”(uslubiy qo’llanma) , Navoiy. 2006,40 bet
3. Yoqubov I. “Ingliz tili o’qitish metodikasi”, (o’quv qo’llanma). Toshkent,Sharq nashriyoti. 2003-yil
4. Ahrorovna, N. N. ., & Marjona, M.. (2021). Essential Memory Improving Techniques in Teaching and Learning Process. "ONLINE - CONFERENCES&Quot; PLATFORM, 62–68. Retrieved from <http://papers.online-conferences.com/index.php/titfl/article/view/589>
5. Saidova, M. U. (2019). Lexical Stylistic Devices and Literary Terms of Figurative Language. International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN, 2277-3878. <https://www.ijrte.org/wp-content/uploads/papers/v8i3S/C10541083S19.pdf>.